

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Komplayens xizmati  
tomonidan 2022-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**  
**H I S O B O T**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga (*keyingi o‘rinlarda – Jamiyat*)ning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 9 nafar xodimlar bilan to‘ldirilgan.

Xodimlar **44 marotaba** (*37 ta onlayn va 7 ta an‘anaviy*) malaka oshirish kurslariga qatnashib, **38 ta** sohaga oid sertifikatlar olindi.

*Ma’lumot uchun: Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasi (International Anti-Corruption Academy)ning “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish” yo‘nalishida 17 ta va “Aktivlarni deklaratsiyalash – korrupsiyani aniqlash indikatori” yo‘nalishida 8 ta, “Xaridlar sohasida korrupsiya va firibgarlikni oldini olish” yo‘nalishida 2 ta, Moliya vazirligining “Davlat xaridlarini amalga oshirish” yo‘nalishida 6 ta hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining sohaga oid 3 ta sertifikatlari olindi. Bundan tashqari, “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha boshqaruv tizimi va kadrlar bilan ishlash ahamiyati” mavzusida Dubay shahrida o‘tkazilgan treningda ishtirok etilib, 2 ta xodim tomonidan ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari asosida sertifikatlar olindi.*

ISO 37001:2016 xalqaro standartining muvofiqlik sertifikatini olish yuzasidan tasdiqlangan **Yo‘l xaritasi** ijrosi bo‘yicha **15 ta** ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Jamiyatning rasmiy veb-saytida hamda ichki portal (*jamiyat xodimlari uchun joriy etilgan*)da “Korruptsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma’lumotlar” bo‘limlari yaratildi. Mazkur bo‘limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e’lon qilinishi belgilangan ma’lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallar, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens xizmatining mas’ul xodimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirildi.

2022-yil **noyabr-dekabr** oylarida “NKMK” AJda korruptsiyaga qarshi kurashish oyligi o‘tkazildi. Ushbu oyda, Adliya vazirligi tomonidan 202-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan (*korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash*) Uslubiyot hamda Jamiyat ichki idoraviy hujjatiga asosan Jamiyat markaziy apparatining 54 ta boshqarma va bo‘limlarning 536 ta funksiyalari baholandi.

Baholash natijalari “E-Anticor.uz” elektron platformasiga belgilangan ma’lumotlar kiritilib, xavf-xatarlarni oldini olish yuzasidan 2022-yil 27-dekabrdan 62 banddan iborat Dastur (*chora-tadbirlar rejasi*) tasdiqlandi.

Bundan tashqari, 2022-yil 6-dekabrdan “NKMK” AJda **ochiqlik darajasini** yanada oshirish bo‘yicha **67 ta** banddan iborat chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

“Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan 2022-yil 6-dekabrdan Navoiy ixtisoslashtirilgan prokuraturasi va Navoiy viloyati Monopoliyaga qarshi kurashish hududiy boshqarmasi rahbar xodimlari ishtirokida “NKMK” AJ xodimlariga seminar-trening o‘tkazildi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish oyligi doirasida, ishchi-xodimlarning uyali xizmat telefonlariga har haftada bir marotaba SMS xabarlar yuborilib, xabarlar orqali korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy tushunchalar haqida ma’lumot berildi.

2022-yilda **37 marotaba** huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, 17 ta seminar, 13 ta uchrashuv, yig‘ilish va davra suhbati, 1 ta taqdimnoma muhokamasi, 1 ta

so‘rovnama o‘tkazilib, 5 marotaba ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2022-yil 10-noyabrda O‘zbekiston Milliy axborot agentligining rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” mavzusida maqola e’lon qilindi.

Shuningdek, “Navoiy viloyati” radio kanali orqali Komplayens xizmati tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot berildi.

2022-yil davomida Komplayens xizmatiga jami **115 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo‘lib, shundan muddati kelgan **90 tasining** ijrosi ta’minlandi.

Komplayens xizmati tomonidan jami **990 ta** (*822 ta buyruq va 168 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan **9 ta** takliflari amaliyotga joriy etildi.

Xaridlar sohasida “Potensial tovarlar yetkazib beruvchilarining dastlabki malakasini baholash bo‘yicha tashkil etilgan komissiya” (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **27 ta** tender hujjatlari bo‘yicha 48 ta subyektlarning hujjatlari ko‘rib chiqilib, **2 ta** holatda manfaatlar to‘qnashushi oldi olindi.

Fuqaro murojaatlari va topshiriqlarga asosan jami **24 ta** nazorat tadbirdari (*o‘rganish hamda xizmat tekshiruvi*) o‘tkazilib, shundan 14 tasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. Xususan, 1 nafar rahbar xodim ma’muriy va 9 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortildi (*shundan 3 nafar xodim lavozimidan chetlatildi*).

**Komplayens xizmati boshlig‘i**

**A.Soliyev**